



TA'LIM TIZIMIDA INKLYUZIV TA'LIMNI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING O'ZBEKISTON VA XORIJIY TA'LIM TAJRIBASI

*Abdumalikova Rayxona Dilshod qizi
Chirchiq davlat Pedagogika Universiteti
Musiqa ta'limi San'atshunoslik fakulteti 3-kurs talabasi*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada, umumiy o'rta ta'lismaktablarida inklyuziv ta'limning joriy qilinishi, O'zbekiston va xorijiy mamlakatlarda inklyuziv ta'limning qo'llanilishi, imkoniyati cheklangan bolalarning sog'lom bolalar qatorida ta'limga olishi ularga yaratilgan shart-sharoitlar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'limga konsepsiysi, integratsiyalashuvligi og'ir bolalar ta'limga integratsiyasi, individual rejajashtirish.

KIRISH

Alovida ehtiyojli bolalarni tarbiyalash, mamlakatimiz oldidagi asosiy vazifalardan biridir. Bu zarur, shart, har bir kishi o'z harakatlarining egaligi va dolzarbligini his qilishi mumkin bo'lgan chinakkam inklyuziv jamiyatni yaratish. Biz har bir bolaning ehtiyojlari va boshqa sharoitlaridan qatiy nazar, o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi, jamiyatga hissa qo'shishi va uning to'laqonli a'zosi bo'lishi uchun sharoit yaratishimiz shart." Devid Blanhet.

Mamlakatimizda bugungi kunda jismoniy yoki aqliy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan 86ta ixtisoslashtirilgan davlat ta'limga muassasasida 21 363 ta bola ta'limga tarbiya olmoqda. 13 868 o'quvchiga esa uyda yakka tartibda ta'limga beriladi. Bugungi kun talablari asosida inklyuziv ta'limga joriy etishning huquqiy asoslarini yaratish maqsadida yangi tahrirda O'zbekiston Respublikasining "Ta'limga to'g'risida" gi qonuni lohiyasiga inklyuziv ta'limga tushunchasi kiritiladi. Bu borada Prezidentimizning 2018 yil 5-sentyabrda qabul qilingan "xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillari joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori tizimi rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Ushbu hujjat asosida Xalq ta'limi Vazirligi tomonidan rivojlanishida turli nuqsoni bo'lgan hamda davolanishga va sog'lomlashtirishga muhtoj bolalarning, ijtimoiy kafolatlarini ta'minlovchi chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirish,



ularning ta’lim-tarbiya olishiga xizmat qiladigan moslashuv muhitini yaratish bo‘yicha alohida vazifalar belgilanadi.

Mazkur belgilangan vazifalar ijrosi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar xususida O‘z Axborot muxbiri Xalq ta’limi Vazirligi Bolalarni ijtimoiy himoyalash va qo‘llab-quvvatlash boshqarmasi boshlig‘i o‘rnbosari Suxrob Xoliqov quyidagilarni so‘zlab berdi:

“Inklyuziv ta’lim bo‘yicha Yevropa Ittifoqligi bilan hamkorlikda 2014-2016 yillarda amalga oshirilgan loyiha doirasida Respublikaning 5ta hududida tajriba-sinov maydonchalari tashkil etildi. 153 nafar tibbiy-psixologik komissiya va 1350 nafar pedagog hodim inklyuziv ta’lim xizmatlariga o‘qitiladi. Ta’lim tizimiga inklyuziv amaliyotni tadbiq etish bo‘yicha pedagog hodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutlarining o‘quv rejalariga 3ta o‘qitish moduli kiritiladi. 2000dan ortiq imkoniyati cheklangan bolalar va ularning ota-onalariga inklyuziv ta’lim xizmatlari tashkil etiladi.

Rivojlanishida turli nuqsonlari bo‘lgan hamda, davolanish va sog‘lomlashtirishga muhtoj bo‘lgan bolalarning ijtimoiy kafolatlarini ta’millonchi say-harakatlar, korreksion va reabilitatsion ishlar natijasida oxirgi 5yilda 500 nafarga yaqin manashunday o‘quvchilarning umumiy o‘rta ta’lim maktablariga qaytishi ta’mundi. Hozirda 5900 dan ortiq umumiy o‘rta ta’lim maktablarida inklyuziv ta’lim bilan 64 700 nafarga yaqin o‘quvchilar qamrab olingan.

TADQIQOT NATIJALARI

O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni takomillashtirish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim tarbiya berish tizimini shakllantirish hamda ularga ko‘rsatiladigan ta’lim hizmatlari sifatini yaxshilashga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13 oktyabrda “Alovida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori qabul qilindi.

Konsepsiyanı amalga oshirish bo‘yicha 2020-2021 yillarda mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi” tasdiqlandi. 2023-2025 yillarda inklyuziv ta’lim tizimi 51% umumta’lim maktablarida joriy qilinishi belgilangan. Ushbu ta’lim shakliga 40% imkoniyati cheklangan bolalar jalb qilinadi. Integratsiyaning 2 turini ajratib ko‘rsatish kerak: ta’lim va ijtimoiy. Ta’lim integratsiyasi bu – inklyuziya, ya’ni inklyuziv ta’lim bo‘lib, nogiron bolani bitta maqsadga kiritishni ta’minlaydi. Ta’lim muhiti normal rivojlanayotgan tengdoshlari bilan Ijtimoiy integratsiyasi bolaning jamiyatga qo‘llanilishi, ya’ni uning ijtimoiylashuvini o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy integratsiya rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan barcha bolalarga istisnosiz, buzilishning tabiatи va



tuzilishidan qatiy nazar, mahsus ta'lim ehtiyojlari, Yoshi, shuningdek ular o'qiyotgan muassasa turi.

Birinchi marta integratsiyalashgan o'qitishning nazariy asoslari taniqli rus olimi L.S.V.Y Gyotskiy.

Uning ta'kidlashicha, maktab internatda o'qaiyotgan bola normal rivojlanayotgan tengdoshlaridan, oiladan va umuman jamiyatdan ajralib turadi. L.S Vigotshining ta'kidlashicha, maxsus matabning devorlarini "buzish" maxsus bolaning madaniy va tarixiy rivojlanishini ta'minlash va uning jamiyatga "o'sishi" uchun sharoit yaratish kerak. Har bir mamlakat maxsus inklyuziv ta'limni amalga oshirish uchun amal qiladigan o'z siyosatiga ega bo'lishi karak. Bu siyosat milliy ta'lim tizimining asosiy xususiyatlarini va eng muhim bo'lgan milliy maqsadlarni o'zida aks ettirishi zarur.

Milliy siyosatga qo'shimcha ravishda maxsus inklyuziv ta'lim sohasida turli jamoa va maktab okruglari ehtiyojlarini qondirishga moslashtirilgan hududiy siyosatlarini aks ettirubchi maxsus inklyuziv ta'lim uchun ehtiyojlarini aniqlash, ta'limni individual rivojlantirish jarayoni, imkoniyati cheklangan bolalarga ta'limni individual rajalashtirish jarayoni, imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim berishda maktablarda yordamchi personal, ota-onalar isgtirokchi, muassassa va xizmatlar bilan bog'lanishini ta'minlash shuningdek, davom ettiruvchi manitoring va imkoniyati cheklangan uchun zaxiralar sharxi bilan ta'minlash kabi xususiyatlarini ichiga olgan o'z siyosatiga ega bo'lishi talab etiladi. Bunda imkoniyati cheklangan bolalarga umumta'lim maktablardami, maxsus maktablardami yoki maxsus sinflarda ta'lim berish borasida aniq qonunchilik bo'lishi zarur.

MUHOKAMA

Bugungi kunda inkoniyati cheklangan bolalar hech bir davlatda e'tibordan chetda qolgani yo'q. Ularning ta'lim- tarbiya olishlari uchun inklyuziv jamiyatning joriy qilinishi esa katta imko niyatlar eshigini ochdi. Sog'lom bolalar qatorida ta'lim olsh, ular uchun ham o'z qobilyati va bo'limini rivojlantirish uchun tertki bo'lmay qolmadi. Bu kabi imkoniyatlar har bir davlatda mavjud. Biz AQSH, Buyuk Briyaniya, Rossiya, Xitoy, Hindiston, Shvetsariya, Qirg'iziston, Qozog'iston misolida imkoniyati cheklangan bolalarga yaratib berilgan shart sharoitlar bilan tanishib chiqamiz. Bugungi kunga qadar jahon miqyosida juda ko'plab davlatlarda inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish borasida amaliy tajribalar olib borilayotgani barchamizga ma'lum. Bugungi kunga jahon miqyosida xususan, Rossiyada inklyuziv ta'limning keng tarqalgan modeli ommaviy maktablarda maxsus sinflardir. Ular qiyidagicha yordamchi muhtoj bolalar uchun tashkil qilingan.



Intellektida buzilishi bo‘lgan bolalar uchun, psixologik rivojlanishi sust bo‘lgan bolalar uchun. AQSH, Buyuk Briyaniya, Daniya kabi bir qator mamlakatlarda maktab turini tanlash qonun tomonidan belgilanadi, ota-o nalar esa ta’lim turini tanlashni yozma ravishda tasdiqlashi, ayrim hollarda asoslab berishlari lozim deb topilgan. Buyuk Britaniyada integratsiya jarayonida maxsus maktab o‘quvchilari uchun alohida ishlab chiqilgan. Maxsus maktab o‘quvchilarining ma’lum qismi ommaviy maktabda ta’lim oladilar. Integratsiyani amalga oshirish uchun o‘yin, jismoniy tarbiya, amaliy faoliyat turlari alohida tanlangan. Buyuk Britaniyada integratsion ta’lim tashkil etish uchun alohida maktablar rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun alohida mablag‘lar bilan ta’minlangan. Buyuk Britaniyada maxsus, maktablarda ta’lim-tarbiya olayotganog‘ir nuqsonli bolalarni integratsiyalash dasturi ishlab chiqilgan. Qaysi maktabda integratsion ta’lim tizimi joriy etilgan bo‘lsa, o‘sha maktab maxsus maktablarda o‘qilayotgan bolalarning bir qismi qamrab olinadi. Integratsiya tizimini yanada puxtarloq joriy etish maqsadida o‘yinlar, jismoniy tarbiya, raqs va bir qancha amakiy mashg‘ulotlar kiritildi. (Evansp L ma’lumotlari, 1996). Bu kabi mashg‘ulotlar imkoniyati cheklangan bolalarni sog‘lom bolalar kabi ta’lim tarbiya olishiga imkon yaratib beradi.

Qozog‘iston: 2003-yilda “Maxsus ehtiyojli bolalarni korreksion ijtimoiy va tibbiy pedagogik qo‘llab quvvatlash haqida” gi qonun qabul qilindi. Bu qonun asosida maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim muassasalarda ta’lim tarbiya berish, korreksion xonalari, maxsus mакtab va mакtabgacha reabilitatsion markazlar, psixologik-pedagogik reaksiyalari xonalari maxsus mакtab va mакtabgacha ta’lim muassasalarida qisqa muddatli guruxlar tashkil qilingan.

Qирғизистон: inklyuziv ta’limni rivojlantirish tanlab olingan davlat maktablari va xususiy o‘quv muassasalarida olib boriladi. Mutaxassislar guruxi ommaviy maktablarda ta’lim olish uchun imkoniyati cheklangan bolaalarni tanlab oladi. Ularning bazasida o‘qituvchilar, ota onalar, mahalliy hokimiyat vakillari uchun uchta semenar, Ta’lim vazirligi va mahalliy ta’lim departamenti uchun respublika miqyosida kanferensiya ham o‘tkazilgan.

Rossiya: V.A. Berezina, L. M. Shipsinlarning bergen ma’lumotlariga ko‘ra hozir Rossiyada maxsus ta’lim 2ta yo‘nalishda: differsial va integratsiya tarzida tashkil etilgan. Differcial ta’lim 8-yo‘nalishda tashkil etilgan. Oxirgi paytda Moskva, Sankt-peterburg va Rossianing boshqa bir qator shaharlarida maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim muassasalariga jalb etish borasida ilmiy izlanishlar va psixologik- pedagogik amaliy ishlar olib borila boshladи. Rossiyada integratsion



model asosida umumta'lim muassasalarida maxsus sinflar tashkil etilgan bo'lib, ular quyidagicha:

- aqliy rivojlanishda orqada qolgan bolalar uchun guruhlar va sinflar;
- ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar uchun guruh va sinflar;
- xulqi og'ir bolalar uchun gurux va sinflar.

Hindiston: qonunida majburiy boshlang'ich ta'limga jiddiy va kata vazifa deb qaraldi. Hindistonda 1-yoshdan 14-yoshgacha bo'lган bolalar 2.000.000 ni tashkil qiladi. Ta'lim tizimini rivojlantirish 1947-yilda mamlakat mustaqillikga erishgandan so'ng qonuniy tasdiqlanga. 1986-yilda ishlab chiqarilgan va 1992-yilda milliy ta'lim qonuniga ko'pgina mutaxassislar va turli shtatlarning vakillari ishtirokida hamda boshqa tegishli fuqarolarning hamkorligidagi sayi harakati bilan qo'shimchalar kiritilgan.

Mamlakatda istiqomat qiluvchi barcha fuqarolarning ta'lim olish huquqi kafolatlangan. Ta'lim to'g'risidagi qonunning asosiy bandida rivojlanishida alohida ehtiyoji bo'lган bolalarni barcha qatori ta'lim olishi va ular o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf qilinishi qayd etilgan.

Shuningdek, qonunda mamalakatda yashovchi nogiron bolalar, qiz bolalar har-xil hududlarda yashovchi mayda millat bolalari, ijtimoiy himoyaga muhtoj ekanligi aniqlanib, ularga qo'shimcha ravishda e'tibor berilib, ta'lim olish huquqi takidlangan. Hindistonda bolalarning ko'pchilik qismi maktablarda o'qitilishiga qaramasdan, 35 000 000 6-14 yosh bo'lган bolalar hanuzgacha ta'limdan chetda qolib ketmoqda. Bunga sabab maktablarning yetishmasligi, binolarning nogiron bolalarga moslashtirilmaganligi, o'qituvchilarining davomatining pastligi va yetishmasligi, ma'naviy ta'minotning yetarli emasligi, maktablardagi ta'lim jarayoning sustligi va h.k. "Har-xil tabiy qatlamlarga ko'ra boshpanasiz qolgan, boquvchisini yo'qotgan, yetim bolalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar hanuz normal ta'limdan chetda qolmoqdalar. Keyingi vaqtida ta'lim olishning bir qator mavhum tizimim rivojlna boshladi. Bunday tizimni shakllantirish yaxlit bitta vazirlik doirasida bo'lishi kerak" deb takidlaydi-Keralin Daier.

Ushbu shakllangan ta'lim tizimining vazifasi o'yin orqali o'qitishga asoslangan yangi ishlab chiqarilgan dastur yordamida, o'qituvchi o'quvchiga yondoshish yo'lli bilan o'qitish talab etiladi. Bunday yondashuv doirasida o'qitish har-xil bolani ehtiyojinin qondirish uchun individuallashtirilgan bo'lishi takidlangan. Inklyuziv ta'limning ijtimoiy masalasi har bir uzoq masofadagi hududlarda yashovchi bolalarni ota-onalarning hohishiga ko'ra davlat maktablarida oqitishi davlatning imkoniyati va o'qituvchilarining xohishi, sharoitidan kelib chiqishi amalga oshirilishi mumkinligi



aytilgan. Davlat maktablariga qatnovchi guruhlari ko'pchilik ananaviy seyregatsion guruhlaridan maktablariga qatnaydilar. Bu esa ijtimoiy inklyuzivning muhim muammosidir. Bu mamlakatning davlat qonuni formal va noformal va normal ta'lif tizimini joriy qilishdi. Yunisev va Yunesko tashkilotning hissasi va bevosita hamkorligida tuzilgan nuqsonli bolalarining integratsion ta'lif loyihasi bo'yicha ish olib borila boshladi. Bu loyiha Hindiston hukumati siyosati va etnik holatini hisobga olgan holda tuzilgan. (Ainshov M va boshqalar, 1996-yil).

Xitoy: integratsiyalash jarayoni barcha umummillat ma'lumotlarini yig'ish, tajriba almashish, muloqot va fikr almashish, kadrlar tayyorlash, muktab o'quv jarayonlarini isloq qilish, muktab hodimlari bilan uchrashuv va savol javoblar o'tkazish hamda barcha axborotlarni yig'ib tahlil qilishdan boshlanadi.

Nuqsonli bolalar ta'lif tizimida birmuncha yangi edi. Har bir tumanda integratsion ta'lif borasida seminarlar uyuşdırıldı. 8 ta o'quv seminarda 1000 dan ortiq kishilar ishtirok etdilar. Bir qancha pedagogika institutlarida nuqsonli bolalar ta'limi nomli o'quv kurslari o'tila boshladi. (Ainslov.M va boshqalar 1996-yil). Xitoyning ta'lif bo'yicha milliy tadqiqot institute YUNESKOning maqsadli grand mablag'lari yordamida alohida ehtiyojli bolalar ta'limini qo'llab quvvatlash mzasadida Web resurs markazini tashkil etish bo'yicha innovatsiya dasturini ishlab chiqdi. Bu resurs markazning vazifalari quyidagilardan iborat:

Alohida ehtiyojli bolalar va yoshlarni ta'lif tizimiga kiritishda ma'lumotlarni olish bo'yicha resurslarni aniqlash.

Maxsus ehtiyojli shaxslar bilan aloqa o'rnatish.

Ma'lumotlar bankida turli ta'limiy va rivojlantiruvchi materiallarni tashkil qilish.

Internet tizim orqali mutaxxasiswa maslahatini uyuştirish.

WLb resurs markazi foydalanuvchilari orasida tajriba va bilimlar almashtirishni tashkil qilish.

Integratsiya muammolari hal qilish vositalarini vositalarini izlash.

Shvetsariya: rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar ta'limining asosiy qismini ommaviy muktabda olishlari ko'zda tutuvchi dastur mavjud. O'qituvchilar to'rt kishidan ommaviy muktabning uchta o'qituvchisi va imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash bo'yicha maxsus tayyorgarlikka ega bitta o'qituvchidan iborat guruhi faoliyat ko'rsatadi. Muktab ma'muriyati uch oyda bir marotaba ta'lif psixologiyasi doirasidagi mutaxassislar bilan bir marta uchrashib, zarur tadbirlar va ota-onalar bilan uchrashuvlar borasida maslahatlashib oldilar. Bunday yondashuv o'qituvchi



mehnatini samaradorligini oshirish integratsuya sinflarida ta’lim metodlrsini qo‘llash sifati muhim omildir.

Shvetsariyada ham boshqa mamlakatlar kabi inklyuziv ta’limga e’tibor katta, ular uchun yaratilgan sharoit sog‘lom bolalarga yaratilgan sharoitdan qolishmaydi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, inklyuziv ta’lim nogiron bolalar ehtiyojlarining xilma-xilligi, zixmatlarning uzluksizligi, birinchi navbatda bunday bolalar uchun eng maqbul bo‘lgan ta’lim muhiti bilan mos kelishi kerakligini anglatadi. Ushbu printsip barcha bolalar yashash joyida maktabning ijtimoiy va o‘quv hayotiga qo‘shilishi kerakligini bildiradi. Inklyuziv maktabining farqli ravishda ta’lim yutuqlariga erishishga qaratilgan. Inklyuziv maktabining maqsadi barcha o‘quvchilarga (ularning aqliy va jismoniy holatlaridan qatiy nazar) ijtimoiy hayotni yakunlash, jamoada, jamiyatda faol ishtirok etish imkoniyatini berish, shu orqali bolalarga har tomonlama ta’sir va yordam ko‘rsatish Ozbekiston va xorijiy mamlakatlarda ham inklyuziv ta’limga bo‘lgan e’tibor katta. Nogiron bolalarni o‘qitish bo‘yicha xorijiy tajribani tahlil qilgandan so‘ng shuni ta’kidlkash mumkinki, bir qqator mamlakatlarda bunday bolalarni birlashtirish mumkinligi to‘g‘risida aniq kelishuv mavjud. Qaysidir mamlakatni olmaylik, barcha mamlakatda hech bir bola davlat e’tiboridan chetda qolmaydi.

REFERENCES

1. “Inklyuziv ta’lim” –o‘quv uslubiy qo‘llanma. Toshkent 2019.
2. www.pedagog.uz
3. www.lex.uz
4. www.ziyonet.uz
5. “Inklyuziv ta’lim asoslar” – o‘quv uslubiy qo‘llanma. Urganch 2020.